

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING FONEMATIK IDROKI USTIDA OLIB BORILADIGAN ISHLAR

**Kosimova Laylo O'tkirjon qizi**

Nizomiy nomidagi O'zMPU "Surdopedagogika" yo'nalishi  
Magistratura 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19681213>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada Zaif eshituvchi bolalarda fonematik idrokning zaif eshituvchi bolalarda qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi yani fonematik eshituv ushbu bolalarda qanday qilib to'g'ri shakllantirish mumkin. Bunda qanday metodikalardan foydalanish samarali bo'ladi shunga qaratilgan mavzu hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Zaif eshitish, fonematika, fonema, fonematik idrok, korreksion pedagogika, surdopedagog.

## ИЗУЧЕНИЕ ФОНЕМАТИЧЕСКОГО ВОСПРИЯТИЯ У ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. РАБОТА НАД ВОСПРИЯТИЕМ.

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются изменения, происходящие в фонематическом восприятии у детей с нарушениями слуха, то есть, как у этих детей формируется правильное фонематическое восприятие. Какие методы эффективны в этом отношении

**Ключевые слова:** потеря слуха, фонетика, фонема, фонемное восприятие, коррективная педагогика, педагог для глухих.

## WORK ON PHONEMATIC PERCEPTION IN CHILDREN WITH HEARING IMPAIRMENTS. WORK ON PERCEPTION.

*Abstract.* This article focuses on what changes occur in phonemic perception in hearing impaired children, that is, how phonemic hearing can be formed correctly in these children. What methods are effective in this regard.

**Keywords:** Hearing loss, phonetics, phoneme, phonemic perception, corrective pedagogy, deaf pedagogy.

Har bir pedagogik tizim faqatgina nazariy asos va undan kelib chiquvchi o'qitishdan iborat bo'libgina qolmasdan, o'z ichiga o'qitish shart-sharoitlarini va shakllarini tashkil qilishni ham oladi. Surdopedagogikaning barcha ma'lum bo'lgan tizimlaridan birinchi bosqichi ta'limning turli bosqichlariga ajratilgan maxsus o'qitish uchun berilgan barcha materiallar bosqichlararo taqsimlangan va izchillik bilan bosqichma-bosqich tuzishni murakkablashgan, hajmi ortgan.

Bir bosqich ma'lum nutqiy qo'nikmalarni hosil qilishni talab qilsa, keyingi bosqich undanda murakkabroq nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'qitishning izchil va bosqichmabosqichligi bolaga o'qitishning faqatgina asoslarini egallashga yoki maktab o'qitish kursining to'liq o'tish imkoniyatini berar edi.

Shu fikirlarni inobatga olgan holda talim sifatini yaxshilash uchun faqat bir tomonlama emas Har tomonlama ustozlar mahsus pedagog va ota onalar hamkorlikda ishlashlari talab etiladi.

Fonetik va fonematik nutq buzilishlari maktabgacha yoshdagi bolalarda eng ko'p uchraydigan nutq muammolaridan biridir.

Ushbu buzilishlar nutq tovushlarini talaffuz qilishdagi xatolar, tovushlarni ajratib eshita olmaslik, fonemalarni to'g'ri idrok eta olmaslik bilan tavsiflanadi. Fonetik nutq buzilishlari bolalar nutqida tovushlarning noto'g'ri shakllanishi yoki ularning o'rnini almashtirish kabi holatlar bilan namoyon bo'lishi mumkin.

Fonematik nutq buzilishlari esa tovushlarni ongli ravishda farqlash va qo'llash qobiliyatidagi muammolarni bildiradi. Bu muammolar bolaning nutqini tushunishni qiyinlashtiradi va uning nutq madaniyatini pasaytiradi. Nutq buzilishlarining paydo bo'lishiga turli omillar sababchi bo'ladi.

Organik omillar (masalan, tovush paydo bo'lish mexanizmidagi jarohatlar, tug'ma kamchiliklar), nevrologik kasalliklar, psixologik holatlar va atrof-muhitdagi ta'sirlar (masalan, ona tilining noto'g'ri o'rganilishi, oilaviy muammolar, kommunikatsiyaning cheklanishi) nutq buzilishlarini yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarini aniqlash va ularni to'g'ri davolash uchun kompleks yondashuv zarur.

Fonematik idrok – bu nutq tovushlarini ajratib eshitish, ularni ongli ravishda farqlash va nutqda to'g'ri qo'llash qobiliyatidir. Ushbu qobiliyat nutqning sifatli rivojlanishi uchun asos bo'lib, uning buzilishi fonetik-fonematik nutq buzilishlarining asosiy sabablaridan biridir. Fonematik idrokning yetarli darajada rivojlanmasligi bola nutqining talaffuzidagi xatolarni keltirib chiqaradi va ularni korreksiya qilish jarayoni.

Bu yerda milliy surdopedagogika sohasining rivojlanish tarihi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Boy ma'naviy qadriyatlar va madaniyatga ega xalqimizda asrlar davomida bolaning tarbiyasi masalalariga e'tiborga olinishi lozim bo'lgan omillar, uning maktab hamda oiladagi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Bu boradagi fikrlar milliy surdopedagogikaning rivojlanishida muhim manbalar vazifasini o'tagan bo'lishi, shubhasiz.

Abu Nasr Forobiy axloq, odob, rasm-rusum, kasb-hunar, odat hamda irodaning tarkib topishida ta'lim va tarbiyaning o'rni beqiyosligi, shu bilan birga, har bir bolada yoshligidanoq tushunish, fahmlash, muhokama qilish, o'ylab topish, fikrlash layoqati mavjud bo'lishini alohida ko'rsatib o'tgan bo'lsa, milliy pedagogikamiz asoschisi A.Avloniy yosh avlod, uning tarbiyasiga jamiyat, millatning kelajagi sifatida alohida e'tibor berib, bu ishni ilk yoshdan boshlash zarurligini alohida ta'kidlaydi hamda ta'lim bilan tarbiya bir-biri bilan bog'liq bir butun jarayon ekanligi, muallimga ushbu omilga alohida ahamiyat berish lozimligini uqtiradi.

Olim til shaxs tafakkurining rivojlanishi, uning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishida muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan. A.Avloniy tarbiya masalasiga doir: «Tarbiyani kimlar qilur? Qayda qilinur? degan savol keladur. Bu savolga: «Birinchi-uy tarbiyasi.

Bu ona vazifasidir. Ikkinchi-maktab va madrasa tarbiyasi. Bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidir», - kabi fikrlarni bildirgan holda, ta'lim-tarbiyada bola yashab turgan sharoit, muhit, jamoatchilikning roli katta ekanligini ko'rsatadi. Bu borada oila, maktab hamkorligi zaruratini, oilada bolaning sog'lig'iga alohida ahamiyat qaratilishi lozimligi, kasallangan farzandni darhol shifokorlarga ko'rsatish, kasallikning oldini olish, vaqtida davolash muhimligini ota-onalarga uqtiradi. gan bolalar tarbiyasi tamoyillarini quyidagilarga

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni aqliy, jismoniy, ma'naviy, estetik tarbiyasi, bilim olish, jamoat va mehnat faolligini, shaxsning ijobiy sifatlarini rivojlantirish bo'yicha maktabning ishini davom ettirish va kengaytirish bilan har tomonlama rivojlantirish.

2. Siyosiy yetuklik, fuqarolik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash.
3. Mehnatga ijobiy munosabat va o'z mehnati bilan jamiyatga foyda keltirish ehtiyojini tarbiyalash.
4. Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning ijobiy va ma'naviy sifatlarga ega shaxsni shakllantirish, huquqni o'rgatish, intizom, xislat va o'zini tutish madaniyatini, sinf, maktab, oila, jamiyatning me'yor va qoidalari buzilishiga yo'l qo'ymaslikni tarbiyalash.
5. Og'zaki nutqdan foydalanish imkoniyatini tug'diruvchi sharoitlar va gaplashish muhitini yaratish yordamida qolgan tovushlardan foydalangan holda so'zlashuvni rivojlantirish.
6. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamoada yashash va ishlashga tayyorlash, bilishni tarbiyalash, o'zaro muomala, ijtimoiy muloqotni kengaytirishga intilishni rivojlantirish, oila tashkilotlar bilan hamkorlikda eshitmaydigan o'quvchilarning jamoaga ijtimoiy moslashishi ustida ish olib borish. Tarbiyaviy vazifalar ma'lum shartlarga rioya etilgandagina sodir bo'ladi deb tarifi etilganligi haqida malumotlar bor.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganimizda zaif eshituvchi bolalar ta'lim olish jarayonida fonematik idrokning to'liq va yaxshi darajada qo'yilganligi ushbu toifadagi bolalarning og'zaki nutqining vaholanki yozma nutqining ravon va to'g'ri bo'lishiga sabab bo'ladi.

#### **Foydanilgan adabiyotlar**

1. NUTQIY MULOQOT DARSLARINI TASHKIL QILISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH Mamarajabova Zulfiya Narbayevna Nizomiy nomidagi TDPU professori, p.f. d. Abdullayeva Muborakxon Azizxon qizi Nizomiy nomidagi TDPU talabasi maqolasi
2. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA FONETIK- FONEMATIK NUTQ BUZILISHLARINI BARTARAF ETISH METODIKASI Shoabdullayeva Zulfiya Shoraxim qizi Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, Logopediya yo'nalishi magistranti
3. O'quv uslubiy majmuasi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv uslubiy kengashining 2021 yil 1-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
4. Mahsus pedagogika datslik P.M.Po'latova, L.Sh.Nurmuxamedova, D.B.Yakubjonova, Z.N.Mamarajabova, Sh.M.Amirsaidova, A. D.Sultonova